

**QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNING
SIFAT O'ZGARISHLARI**

Tashbayeva Hulkaroy Xolmurod qizi– “O'zdaverloyiha” DILI 1-bosqich
doktoranti, q.x.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda tuproq unumdorligi, ayniqsa unumdorlik ko'rsatkichlari qishloq xo'jaligi yerlarida muhim ahamiyat kasb etishi, tuproqlar holati haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'z: tuproq unumdorligi, qishloq xo'jaligi yerlari, degradatsiya, yer monitoringi, yerlardan oqilona va samarali foydalanish.

Tuproq unumdorligi - tuproqning suv, oziq moddalar va boshqa bilan ta'minlash xususiyati. Tuproq tog' jinslaridan unumdorligi bilan farq qiladi. Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yeshtiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproq hosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuproq hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o'simliklar bilan uzviy bog'liq, ammo unumdorlik darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi yerlarining holatini yaxshilash, tuproqning unumdorligini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Ushbu dolzarb masalaning ilmiy va amaliy tomonlarini tahlil etish va uning huquqiy asosini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-yilning 10-iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-277-son qarori hamda 2024-yil 2-fevralda O'zbekiston Respublikasining “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida” gi O'RQ-903-sonli Qonuni qabul qilindi.

Bugungi kunda dunyoda global iqlim o'zgarishi tufayli mamlakatimizda ham ob-havoning keskin o'zgaruvchanligi kuzatilmoqda. Bu esa, yerlardagi salbiy

holatlarning ortishiga olib kelmoqda. Natijada dunyo bo'yicha 6-7 mln gektar yer maydoni turli xil degradatsiyaga uchrab, qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketmoqda. Buning oldini olish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish, yerlardan samarali foydalanish maqsadida yangi qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasining "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish tadbirlarini monitoring qilish, baholash va hisobot shakllarini ishlab chiqish hamda ularning natijalarini chop etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash" bo'yicha 50-son qarori qabul qilindi. Unda har bir soha bo'yicha qilinadigan ishlar hajmi, muddatlari, vazifalari aniq belgilab o'tildi. Nizomda sug'oriladigan yerlarda kechayotgan degradatsiya jarayonlarini baholash, monitoring qilish bo'yicha vazifalar ham keltirilgan. Monitoring olib borilayotgan hududda avvalgi olingan ma'lumotlar va bugungi kundagi tahlillar natijalari asosida hisobotlar va ma'lumotlar Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Geoportalga joylashtiriladi va ularda kechayotgan jarayonlar baholanadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-son qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini, yerlarni muhofaza qilishda davlat nazoratini amalga oshirish hamda yer tuzish tadbirlarini o'tkazish tartiblarini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi davomida olingan ma'lumotlardan qishloq xo'jaligi yerlari holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlashda foydalanishi, shu bilan birga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazorati respublikaning butun hududida Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshirishu yuzasidan qaror qabul qilgan. Quyidagi jadval va rasmda 2024 yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining sifatini baholash ma'lumotlari keltirib o'tilgan.

1-jadval.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari

№	Respublika va viloyatlar nomi	Jami sug'oriladigan yer maydoni, ga
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	427470,9
2	Andijon	231652,7
3	Buxoro	230976,9
4	Jizzax	277416,2
5	Qashqadaryo	400347,17
6	Navoiy	103244,9
7	Namangan	244532,53
8	Samarqand	315789,7
9	Sirdaryo	263740,0
10	Surxandaryo	276991,83
11	Toshkent	346148,77
12	Fargona	217908,70
13	Xorazm	220177,56
Respublika bo'yicha jami:		3556397,9



1-rasm. O'zbekiston respublikasi sug'oriladigan yerlarning o'rtacha ball boniteti

Xulosa. Yer - umummilliy boyligi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining bosh vositasi hisoblanadi. Shu sabab yernin holati ya'ni tuproq unumdorligini saqlab qolish, unga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishga, uni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini izchillik bilan jadallashtirish, sug'oriladigan yerlardan oqilona va samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning hosildorligini oshirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobojonov O., Rahmonov Q., G'ofirov A. Yer kadastr. Toshkent, Cho'lpon, 2002 y.
2. Nomozov X.Q. - ug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati – Mehnat, T. 2001.
3. Tolipov G. A. - O'zbekiston Yer kadastr asoslari. - Moliya. T.2007
4. Nig'matov. A. Yer huquqi. - Toshkent Islom Universiteti. 2001.
5. Mirzajonov Q., Nazarov M., Zokirova S., Yuldashev G'. Tuproq muxofazasi. Fan va texnologiya, Toshkent 2004 y.